



**BOSHLANG'ICH VA UMUMIY O'RTA TA'LIM FANLARINI
O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR**

Habixonova Baxtilaxon Rustamxon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi


Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuvlarning o'rni va ahamiyati yoritiladi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta'lim, ta'lim samaradorligi, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, o'quvchi faolligi.

Kirish: O'zbekiston ta'lim sohasidagi kuchli ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy islohotlar ta'lim sifatini xalqaro standartlarga mos darajaga oshirishga qaratilgan bo'lib, ikki tomondan esa xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlari va o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari sifatida ilmiy va innovatsiyaga yondashuv asosida ta'lim-tarbiya mazmunini sifat jihatidan yuksaltirish belgilangan. Ushbu jarayonda ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim jarayoniga ilg'or yondashuvlarni tatbiq etish tobora kuchayib bormoqda.[1] Ta'lim jarayonida davlatning rivojlanishi bugun kechasidan ham istiqboli bo'lishi, avvalo, uning kelajagiga aloqador bo'lgani bilan izohlanadi. Shu davrda 2017–2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yangilash choralari ko'rib, pedagogik innovatsiyalar joriy etildi. Maktabgacha ta'lim muassasalari zimmasiga yanada mas'uliyatli vazifalar yuklandi. MTMda tashkil etiladigan mashg'ulotlar zamonaviy talablarga moslashtirilib, ta'lim-tarbiya va tarbiyalanuvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik tizimni tashkil etdi.

Asosiy qism: Boshlang'ich ta'limda esa bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ijtimoiy-axloqiy, ijodiy hamda intellektual salohiyatini yuksaltirish asosiy maqsad qilib belgilandi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar va multimedia vositalarini keng joriy etish o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. [3, 30-b]

Barcha umumta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishda ilg'or tajribalarni muntazam tarzda amaliyotga tatbiq etish, ochiq darslarni





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ommalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday darslarda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, nutq boyligini oshirish, matnni o'qib, mazmunini tushunib olish va erkin ifodalash ko'nikmalari shakllantirildi.

Ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, bilimga qiziqishini va maqsadli faoliyatini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion darslar o'quvchilarni o'quv faoliyatiga jalb etib, ularning erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirishda, bilimlarni mustahkamlashda, ijodiy yondashuvni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagog dars mashg'ulotlarida ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, ularning qiziqishlarini rivojlantiradi va ta'lim jarayonida faol bo'lishlariga erishadi. Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida darslar quyidagi usullar asosida tashkil etiladi:

1. Kichik guruhlarda ishlashga doir darslar
2. "Klaster" texnologiyasi asosidagi darslar
3. "Insert" texnologiyasi asosidagi darslar
4. "Bumerang" texnologiyasi asosidagi darslar
5. Muammoli izlanish asosidagi darslar
6. Blits-so'rov asosidagi darslar
7. Rolli o'yinlar asosidagi darslar
8. Krossvord asosidagi darslar
9. Ijodiy topshiriqlar asosidagi darslar
10. Xarita asosida tashkil etilgan darslar

Shunindek, innovatsion yondashuv asosida o'tkaziladigan ochiq darslarning mazmuni va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan dars shakllari ham qo'llaniladi. [2, 50-b] Masalan: 1)Suhbat darsi. 2)Munozara darsi. 3)O'yin darsi. 4)Loyiha asosida tashkil etilgan dars. 5)Amaliy mashg'ulot darsi.

Boshlang'ich ta'limda bu kabi darslar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, izlanuvchanligini, nutqini, qiziqishini oshiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, interfaol metodlarni qo'llash, elektron darsliklar, multimedia vositalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda PRILIS tizimi asosida yaratilgan pedagogik texnologiyalar, ilg'or o'qituvchilarning tajribalari keng qo'llanilmoqda. Natijada o'quvchilarning bilim olish jarayoni yanada qiziqarli, samarali va ijodiy tus olmoqda. Umuman olganda, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini nazarda tutgan holda ko'proq ko'rgazmali vositalardan, ta'limiy didaktik o'yinlardan foydalanish samarali natija beradi. O'quvchilarning izlanishi, o'qituvchi tomonidan va qo'shimcha manbalardan olgan ta'limi uning amaliyotda qo'llay olish layoqatini shakllantiradi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madayev, O., Sobirov, A., Xolmanova, Z., Toshmirzayeva, S., Ziyodullayeva, G., & Shamsiyeva, M. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi.
2. Amonov M. "Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish" o'quv qo'llanma.
3. Jamoliddinova D., Meliboyeva S. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya, integratsiyasi".
4. Xoliqova D., Hamidova M. Interfaol metodlar yordamida boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish. – "Pedagogika" jurnali, №3, 2022.

